

MIDIYALIKLAR VA FORSLAR KIMLAR?

Mesopotamiya tekisligidan sharqda joylashgan Eron midiyaliklar va forslar vatani bo'lgan. Bu zamin Dajla va Frot daryolari oralig'idagi yerdan juda katta farq qiladi- bu yerda cho'lu biyobon ham, tog'lar orasida joylashgan hosildor vodiylar ham bor.

Mamlakatning janubi-g'arbida - Mesopotamiya tekisligi qismida - shumer shaharlari kabi jahondagi eng qadimgi bir qancha shaharlar bo'lgan. Bu yerda asosiy markazi Suzada bo'lgan Elam podsholigi bo'lgan. Bu mamlakatda istiqomat qilgan odamlar dastlab hozirgacha ham o'qilmagan piktografik belgilar bilan yozishgan. Qolaversa, bu xalqlar - tarixining o'sha davri haqida hech narsa ma'lum emas. Biroq eramizdan avvalgi uchinchi ming yillikda Elam aholisi o'zining chiziqli yozuvlarini yaratishgan - qo'shni xalqlardan mixxatni o'zlashtirib olishgan.

Eron yassi tog'liklari va uni o'rab olgan tog'li tizmalari hududiga Markaziy Osiyodan o'tish oson bo'lganligi uchun ko'plab ko'chmanchilar, shu jumladan fors tilida so'zlashuvchi midiyaliklar, forslar bu yerga kirib kelardilar. Ular cho'lu biyobonlardan eramizdan avvalgi 1300 yillarda kelganlar hamda butun mamlakat bo'ylab tarqalib ketganlar. G'arbda o'troqlashib qolganlar orasida midiyaliklar va forslar ham bo'lganlar. Midiyaliklar ko'p vaqtlarini ot minib o'tkazishar, ularning kiyimi-ishtoni hamda kigizdan tayyorlangan bosh kiyimlari osiyolik boshqa ko'chmanchilarniki singari edi.

Midiyaliklar asta-sekin qudratli bo'la borib, eramizdan avvalgi 612-yilda bobilliklarga Ossuriya ustidan g'alaba qozonishda yordam beradilar. Onasi midiyalik ayol bo'lgan Buyuk Kiryovush midiyaliklar va forslarni birlashtiradi. Uning fathu zafari natijasida imperiya qadimgi dunyodagi eng yirik saltanatlardan bo'lib qoldi. Dastlab u Onado'lida joylashgan Lidiyani mahv etadi. Lidiyani afsonaviy tarzda badavlat bo'lgan podsho Krez o'z poytaxti Sardisdan turib boshqarardi. Lidiyaliklar tangalarni — bir xil vazndagi metall bo'laklarini — birinchi bo'lib ishlata boshlaganlar. Bu tangalarning o'zgarmasligini davlat nazorat qilib turgan. Lidiyaliklar boyligi manbai Sardis orqali oqib o'tuvchi Paktol daryosidan olinadigan oltin edi.

DARYOVUSH I DAVRIDA FORS IMPERIYASI QAY AHVOLDA EDI?

Kiryovushning o'gli Kambiz otasining niyatini amalga oshirib, eramizdan avvalgi 526- yilda Misrni zabt etdi. Endi Fors saltanati Hind daryosidan Nil daryosigacha kengaydi.

Undan keyin — Daryovush I shoh bo'ldi. U o'zining taxtga chiqishiga qarshi bo'lganlar isyonini bostirib, saltanatni qayta qurishga kirishdi: 20 satrapiya yoki viloyat tuzdi, ularning har birini satraplar boshqarardi. Bu satraplar shohga sodiq fors amaldorlari yoki shoh xonadoni a'zolari bo'lardi. Satraplarga o'z viloyatlaridan soliq undirish topshirilgandi. To'lanadigan soliq oltin ham, kumush ham bo'lishi mumkin edi. Hatto chorva, qul, Arabiston mushku anbari, Xabashiston fil suyagi va Baqtriya tuyasi ham soliq uchun berilardi.

Qo'shin va uning ehtiyojlari bilan satraplardan mustaqil bo'lgan sarkardalar shug'ullanishardi. Bir qancha yo'l tarmog'i barpo etilgandi. Forsdagi Suzadan Onado'lidagi Efesgacha bo'lgan podsholik yo'lidan shoh chopari bir haftada 2700- kilometr yo'lni bosib o'tardi. Yo'lning boshidan oxirigacha karvonsaroylar barpo qilingandi, bu yerda choparlar otlarini almashtirishardi.

Daryovush Qizil dengiz bilan Nil oralig'ida kanal qazdiradi, shundan so'ng kemalar Hind okeanidan O'rta Yer dengiziga tezroq yetib boradigan bo'ldi. Daryovush, shuningdek, butun boshli flotni ham barpo etgan.

AFINA DEMOKRATIYASI QANDAY DEMOKRATIYA?

Afinada demokratiya mavjud edi, bu «xalq boshqaruvi» demakdir. Barcha fuqarolar har oyda o'tkaziladigan «assambleya» (ekkleziya— xalq yig'ini)da ishtirok etish hamda shahar hayotiga taalluqli ishlarga oid masalalar bo'yicha ovoz berish huquqiga ega edilar. Faqat Afinada tug'ilgan katta yoshdagi erkaklar fuqaro hisoblanar, ayollar va qullar esa ovoz berish huquqiga ega emas edilar. Fuqarolar yoki demos qudratli hokimiyatga ega edi: ular o'zlariga ma'qul bo'lmagan siyosatchini quvg'in ostiga olishi va surgun qilishi mumkin edi. Agar kamida 4 ming fuqaro siyosatchiga ishonchsizlik bildirib, uning ismini sopol parchasiga yozgan taqdirda shunday qilinardi. Afinada huquqshunoslar yo'q edi, shu bois xalq

o‘z vakillarini sudga yo‘llardi. Maslahatchilar huqm chiqarar ekanlar, «aybdor» yoki «aybsiz»ligini kichik doirachalar chizib ko‘rsatardilar.

AFINALIKLAR PARFENONNI QACHON QURISHGAN?

Lavriondagi kumush konlari va Pireya tabiiy bandargoh Afina boyligining manbai bo‘lib xizmat qilardi. Afina fuqarolari kumushning bir qismini flot tuzish uchun ishlatganlar.

Eramizdan avvalgi 490- yilda fors shohi Daryovush Yunonistonga bosib kiradi. Biroq shu yilning o‘zida — forslar Marafon yaqinidagi jangda mag‘lub bo‘lishadi. Bu quvonchli xabarni 40 kilometr narida joylashgan Afinaga bir chopqir yetkazadi. Bizga ma'lum bo‘lgan marafoncha yugurishning nomi shu voqyeadan olingan. O‘n yil o‘tgach, forslar yana hujum qilishadi. Eramizdan avvalgi 480- yilda Fermopil yonida bo‘lgan jangda 300 spartalik va ularning ittifoqchilari halok bo‘lishadi. Forslar Afinaga qarab siljib borishadi. Salamin oroli yaqinidagi dengiz jangida, nihoyat yunonlar kemalarining qo‘li baland keladi.

Forslar ustidan qozonilgan g‘alabadan so‘ng Afina forslarning ehtimol tutilgan hujumiga qarshi turish maqsadida tuzilgan ittifoqqa rahbarlik qiladi. Davlatlar forslarni Kichik Osiyodan surib chiqarishda foydalanish uchun mablag‘ to‘play boshlashadi. Biroq afinaliklar bu pulni shaharni bezash uchun ishlatishadi. Ular shahar ma'budasi Afina ibodatxonasi — Parfenonni bunyod etishadi. Ibodatxona «Yuqori shahar» degan ma'noni bildiruvchi Akropol tepaligida bunyod qilinadi.

DELFI ORAKULLARI KIMLAR?

Qadimgi yunonlar, rimliklar, Sharq xalqlari biron-bir muhim qaror qabul qilishdan oldin xudolarga murojaat qilishga odatlangandilar. Ular savol berishar va Parvardigori olam javobini kutishardi. Bu javob biron-bir alomat, belgidan iborat bo‘lardi. Biroq odamlar, ko‘pincha, xudoning irodasini bevosita qabul qilib, dindorga yetkazuvchi kohinlarga murojaat etishardi. Delfdagi Quyosh, san'at va to‘qqiz ilhom homiysi hisoblanuvchi Apollon istiqomatgohi bo‘lmish Parnas tog‘i etagida joylashgandi. Yunonlar, Delf — olamning markazi, deb ishonishardi. Pifiya Delfning eng

mashhur kohinasi edi. Quyuq tutun ichida turib, u bo'g'iq ovoz bilan, go'yo xudoning gaplarini yetkazardi. Ehtimolki, Pifiya Delfdagi barcha kohinlar orasida eng omadlisi edi. Ko'pincha u bergan xabarni yo keyin sodir bo'lgan hodisalar tasdiqlardi, yo bo'lmasa, uning xabarlarini beziyon qolardi. Balki Delfda uning xabarchilari ko'p bo'lgandir? Yo shunchaki omad kulib boqqanmikan? Biroq kunlardan bir kun kohinlardan biri yunonlarga forslar bilan jangga kirmaslik to'g'risida maslahat beradi. Lekin yunonlar bu urushda g'olib chiqishdi. Shundan so'ng kohinlarning obro'-e'tibori tushib ketadi va ularning yordamiga borgan sari kamroq murojaat qilinadigan bo'ladi.

QADIMGI YUNONLARNING XUDOSI NECHTA EDI?

Bu savolga javob berish juda ham o'ng'ay: Zevs boshchiligidagi Olimp xudolari o'n ikkita bo'lib, ular quyidagicha juft-juft edi: Zevs — Gera, Poseydon — Demetra, Apollon — Artemida, Ares — Afrodita, Germes — Afina, Gefest — Gestiya. Bu xudolarning bari kuplab marosimlar vositasida yo'qlanar, eng asosiy marosim — lektisterniy — xudolarni mehmon qilishdan iborat edi.

O'n ikki xudodan iborat davraning yuzaga kelishi qadimgi odamlarning yulduzlar va yoritgichlarni ko'p yillik kuzatuvlariga asoslangan bo'lib, yilning o'n ikki oyga bo'linishida o'z aksini topdi.

Asosiy xudolar yig'ini Fidiy (eramizdan avvalgi 438- yil) tomonidan Parfenonning shar-qiy frizida aks ettirilgan. Unda xudolar Panafineya yurishini o'tirgan holda tomosha qilayotganlari tasvirlangan.

Biroq yunonlar, bu xudolardan tashqari, ko'plab boshqa ma'budlarga ham topinishgan. Bu xudolar masalan, Gekata (sehr-jodu ma'budasi) kulti juda qadimdan yetib kelgan. Ayrim xudolar (Dionis, Vakx va Pan) Yunonistonning muayyan viloyatlari homiysi bo'lgan.

Yunonlar xudolardan tashqari ko'plab shaharlar (nimfalar) hamda mahalliy ma'budlarga ham topinishgan. Ular daryolar, sharsharalar, alohida makonlarning homiylari hisoblangan. Ular sharafiga ko'plab ma'badlar barpo etilgan va qurbonliklar qilingan.

Eramizdan avvalgi 217- yilga kelib rimliklar yunonlardan o'n ikki xudolar davrasini o'zlashtirib olishgan, bu esa, xususan, rimliklar hamda

yunonlar xudolari o'rtasida to'la muvofiqlik o'rnatilishiga olib kelgan. Zotan, rimliklar xudolari ham juftlarga bo'lingan. Bular: Yupiter — Yunona, Neptun — Amfitrita, Mars — Venera, Appolon — Diana, Vulkan — Vesta, Merkuriy — Minerva.

Ayni chog'da rimliklar boshqa ayrim ma'budlarni ham o'zlashtirib, ularga o'zlaricha nom berdilar. Masalan, Dionisga ular Baxus deb nom berdilar.

Rang tasvirda o'n ikki xudo mavzusi Bellini, Rubens, katta Breygel, Tyepololar tomonidan ishlangan. Ularning siymolaridan Shiller eng yaxshi she'rlaridan biri — «Yunoniston xudolari»ni yozishda ilhom olgan.

QADIMGI YUNONLAR QANDAY YASHASHGAN?

Yevropaliklar Uyg'onish davridan boshlab, besh yuz yil mobaynida Qadimgi Yunoniston tarixini «insoniyatning oltin asri», deb atab kelmoqdalar. Chindan ham, antik madaniyatda hozirgi zamon kishilarini ham rom etayotgan ko'plab jozibali jihatlar bor. Bular — jamiyatning oqilona tuzilganligi, inson va tabiat uyg'unligi, kuchli diniy hissiyotdir.

Yunonlar g'oyat dindor bo'lishgan. Ularda xudolar ko'p sonli bo'lib, bu xudolarga, misrliklardan farqli o'laroq, insoniy xususiyatlar baxsh etilgandi. Bu xudolar mag'rur va hasadgo'y, sadoqatli va do'stparvar bo'lishgan. Bir so'z bilan aytganda, ular o'zlarini o'ylab topgan odamlarga o'xshash bo'lishgan. Yunonlar ilmiy bilimlarni g'oyat qadrlashgan, bu holat hatto ularning avlodlarini ham hayratga solgan. Yunonlar, ayniqsa, astronomiya bilan qattiq qiziqishgan. Eng mashhur yunon olimlaridan biri Arximed bo'lgan. U jismlarning suzish qonunini kashf etdi va bu qonun keyinchalik uning nomi bilan «Arximed qonuni» deb yuritila boshlagan. Pifagor (sharqda — Fisog'urs) eng yirik matematik, yoki o'sha davr tili bilan aytganda, geometr bo'lgandi.

Eramizdan avvalgi butun beshinchi asr davomida yunonlar orasida bilimga chinakam intilish mavjud bo'lgan. Geometriya va perspektiva qonunlaridan ibodatxonalar qurilishida foydalanilgan. Shuning uchun ham keyinchalik yashab o'tgan me'morlar ularning ishlarini klassik, ya'ni namunali ish deb e'tirof etishgan.

Qadimgi yozuvchilar — Esxil, Sofokl va Yevripidlarning ham asarlari mashhurdir. Ular o‘z pyesalari bilan shuhrat topishgan. Buyuk yunonlar orasida tarixchi Gerodot ham bor edi. Avlodlar unga «tarix fanining otasi» deb nom berishgan.

Qadimgi yunon faylasufi Suqrot (Sokrat) insoniyatga o‘z-o‘zini anglab yetishni tavsiya etgandi. Uning tadqiqotlarini shogirdi Aflotun (Platon) davom ettirgan. Arastu (Aristotel) ham qadimgi davrning Buyuk faylasufi bo‘lgan.

SUQROT KIM BO‘LGAN?

Suqrot chindan ham donishmand odam ideali hisoblanadi. Lekin Suqrotning o‘zi, chinakam donishmandlik o‘zining sariqchaqaga arzimastligini anglashdadir, deb uqtirgandi.

U Yunonistonda, Afinada taxminan eramizdan avvalgi 470- yillarda tug‘ilgan. Uning bolaligi va ota-onasi to‘g‘risida ma‘lumot juda kam. U o‘zidan keyin hech qanday asar qoldirmagan. Biroq uning shogirdi, qadimgi yunon faylasufi Aflotun Suqrot ta‘limoti va g‘oyalarini ustoz hayotidan olingan lavhalar bilan uyg‘unlashtirib, muloqot shaklida bayon qilib bergan.

Aflotun ta‘kidlashicha, Suqrot butun vaqtini Afina bozorlarida, o‘z so‘zlarini tinglashga rozi bo‘lgan har qanday odam bilan gaplashib o‘tkazardi. U, ayniqsa, biron-bir masalada o‘zining qat‘iy fikriga ega bo‘lganlar bilan suhbatlashishni yoqtirardi. Suqrot bunday odamlarga yo‘l-yo‘lakay savollar berib, ularni gaplashishga majbur qilar, so‘ng esa ular bu qadar ishonch bilan fikr yuritayotgan masalada johil ekanliklarini ko‘rsatib berardi. Shu bois savollar berish orqali bahs olib borish — uslubi Suqrot uslubi, degan nom oldi. Uning asosiy hayotiy qoidasi «O‘z-o‘zingni anglab yet» qoidasi bo‘lgan.

Afinaliklar o‘zlaryning olam to‘g‘risidagi asosiy g‘oyalarini Suqrot rad etganligi tufayli uni yoqtirishmasdi. Ular Suqrotga u xudolarga, haqiqatga va adolatga ishonmasligini aytishardi.

Eramizdan avvalgi 399- yilda dushmanlar uni Afina yoshlarini buzishda hamda diniy majburiyatlarini mensimaslikda ayblab, sudga chaqiradilar. Bunday ayblovlarga hech kim ishonmasdi. Buni Suqrot ham yaxshi bilardi. Uning sudda o‘zini himoya qilib so‘zlagan, keyinchalik

Aflotun tomonidan yozib olingan nutqi mardona, hazil va istehzoga boy edi. U o‘ziga o‘lim jazosini tayinlashlarini bilgani holda, o‘zini haqiqatni topishga bagishlab, avvalgidek yashayverishi darkorligini bayon etadi. Suqrot o‘zining so‘nggi kunini ham do‘stlari bilan jonning abadiyligi to‘grisidagi masalani muhokama qilgan holda hibsda o‘tkazdi. U o‘ziga berilgan, og‘u solingan idishni dadil qo‘lga olib, aslo ikkilanmay, sipqarib yuboradi. Do‘stlari ko‘z yosh qilishadi, ammo Suqrot ulardan sukut saqlashni iltimos qiladi hamda mamnun — lablarida tabassum bilan jon taslim qiladi.

ARASTU KIM?

Arastu (Aristotel) Qadimgi Yunonistonda buyuk kishilardan bo‘lgan. U hamma davrlarda yashab o‘tgan buyuk faylasuflar sirasiga kiradi. Arastu faylasuf Aflotun huzurida yigirma yilga yaqin ta‘lim oladi. Aflotun vafot etgandan so‘ng Arastu o‘z ta‘lim uslubini rivojlantira boshlaydi. U amalda inson duch keladigan barcha muammolar bilan qiziqardi. Aql qay tarzda ishlaydi? Haqiqat qayerda-yu yolg‘on qayerdaligini qanday ajratib olishimiz mumkin? Hokimiyatning qanday shakli afzalroq? Arastu atrof muhitni kuzatgan va dalillar to‘plagan holda bu savollarga javob topishga intildi. U har bir hodisa o‘zining mantiqiy izohiga ega deb hisoblagan hamda tadqiqotlar va kuzatuvlardan hu\$sm chiqarib, uni ta‘riflab bergan ilk olimlar qatorida turadi.

Arastu o‘z maktabiga asos soladi va unga «Liseum» deb nom beradi. U har bir kishi yaxshi va foydali yashab o‘tish imkoniyatini bilish yo‘li bilan olamda o‘z o‘rnini egallashi mumkinligiga ishontirishga harakat qiladi. U yoshlik va qarilik oralig‘idagi umrga — «oltin o‘rtalik»ka ishonardi.

Guvohlik berishlaricha, Arastu astronomiya, fizika, poeziya, zoologiya, notiqlik san‘ati, biologiya, mantiq, siyosat, boshqaruv, axloq ilmi bo‘yicha to‘rt yuzga yaqin asar yozgan.

Arastu asarlarini butun jahonda odamlar yuzlab yillar davomida o‘qib-o‘rganishmoqda. Hyech bir olim shuncha uzoq davr mobaynida odamlar tafakkuriga bu qadar ta‘sir kursatmagandi.

Hozirgi olimlar Arastuning ikki ming yildan ziyodroq vaqt ilgari olib borgan kuzatishlari bugungi kun nuqtai nazaridan ham to‘g‘ri ekanligini tasdiqlashmoqda. U har bir fikr isbotlanishi darkorligini hamda bilimlar asosi dalillar ekanligini bizga anglatadi.

PIFAGOR KIM BO‘LGAN?

Qadimgi Yunoniston ko‘plab buyuk zotlar vatanidir. Ular orasida eng e’tiborlilaridan biri eramizdan avvalgi VI asrda yashab o‘tgan mashhur olim Pifagordir.

Pifagor g‘oyaviy targ‘ibotchi — ya'ni voiz; matematik va faylasuf bo‘lgan. O‘z g‘oyalari va e’tiqodi tufayli u Yunonistonni tark etib, janubiy Italiyaga ko‘chib ketishga majbur bo‘lgan.

Pifagor ta'limoti nimasi bilan bu qadar g‘ayriodatiy bo‘lgan? U ruhning o‘lmasligi va «ko‘chishi»ga ishongan. Boshqacha aytganda, uning fikricha, o‘limdan so‘ng jannatga kirmagan ruhlar boshqa odamlar va hayvonlar taniga o‘tadi. Shu bois u o‘z shogirdlariga go‘sht yeyish hamda xudolarga jonliq qurbon qilishni taqiqlagan.

Pifagor izdoshlari, pifagorchilar boshqa qat'iy qoidalarga ham rioya qilishgan. Masalan, ular sukut saqlashi va sharob ichmasligi shart edi. Pifagor g‘oyalarining ba'zilari sodda va hatto bema'niga o‘xshab ko‘rinishi mumkin, albatta. Biroq u fanga katta hissa qo‘shganini unutmaslik kerak. U torlar tovushining past-balandligi matematik jihatdan uning uzunligiga bog‘liqligini kashf etadi. Shundan kelib chiqib, uyg‘unlik nazariyasini rivojlantirdi hamda koinotda mavjud bo‘lgan jamiki narsa-hodisaning asosida sonlar yotadi, degan fikrni ilgari suradi.

Pifagorchilar Quyosh sistemasiga oid nazariyani ham yaratishdi. Ularning bu sohadagi g‘oyalari haqiqatdan yiroq emasdi. Ular Yer yoritqich atrofida aylanuvchi shardan iborat, deb hisoblashgandi. Albatta, Pifagorning to‘g‘ri burchakli uchburchak tomonlarining nisbatini belgilovchi mashhur teoremasini hamma biladi.